

boyli, fizik va kimyoviy xususiyatlariga ko'ra pichan bilan silosning o'rtasida turadi. Uning nomi ham shundan (pichan-silos yoki senaj deb) kelib chiqqan. Senaj o'zining tarkibidagi o'simliklar turiga ko'ra uning har 1 kg da 0,4-0,5 oziq birligi va 60-65g hazm bo'luvchi protein borligi aniqlangan. Bir sutkada sog'in sigirlarga 20-25 kg, buzoqlarga yoshiga ko'ra 2-4-6-10 kg, qo'ylarga 3-4 kg, qo'zilarga 1-2 kg senaj berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, barcha turdagi oziqlarni mollarga berishdan avval qayta ishlash talab etiladi. Sersuv oziqlarning turlari bilan birga ularni mollarga berish oldidan qayta ishlash ishlariga ham alohida e'tibor berish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. D.Xolmirzayev, X.B.Yunusov "Chorvachilik mahsulotlarini dastlabki va qayta ishlash texnologiyasi va standartlash". Toshkent 2023.
2. T.H.Ikromov "Chorvachilik asoslari". Toshkent 2001.
3. Патиева С. В., Тимошенко Н. В., Патиева А. М.. Технология мясных продуктов функционального и специального назначения: учебное пособие. - Краснодар : КубГАУ. 2015. - 326 с
4. Clerence Henry Eckles. Dairy Cattle And Milk Production-Prepared For The Use Of Agricultural College Students And Dairy Famers. Codman Press. 2007

## **CHORVA MOLLARINI RATSION ASOSIDA OZIQLANTIRISH**

**Babaniyazov B.J., Muqimova A., Abdug'ofurov B.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi va chorvachilik biotexnologiyalari universiteti nukus filiali

**Annotatsiya:** Hayvonlarning fiziologik holati, mahsuldorligi va xo'jalikda foydalanish xususiyatlariga ko'ra, hayvon organizmining oziq moddalar miqdoriga bo'lgan talabi oziq me'yori deb ataladi. Ushbu maqolada chorva mollarini ratsion asosida oziqlantirish masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, fikr va tavsiyalar ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** chorvachilik, me'yor, ratsion, oziq me'yori, fiziologik jarayon, mahsulot, kimyoviy modda, yog' moddalar.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda, ularning sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirishda, shuningdek, ratsionni to'g'ri tuzishda oziq me'yori asos qilib olinadi. Shunga ko'ra, xo'jaliklarda mollarning yoshi, soni, tarkibi, mahsuldorligi va hokazolarga qarab ularga qancha oziq (yem-xashak) talab qilinishini rejalashtirish mumkin.

Mollarning oziq me'yorini belgilash va ishlab chiqarish masalalari bilan uzoq yillar mobaynida shug'ullanilgan va u har tomonlama asoslangan holda o'rganilgan. Binobarin, hozirgi vaqtda ilmiy jihatdan asoslangan, ilg'or tajribalar asosida tasdiqlangan oziq me'yorlari ishlab chiqilgan va chorvachilik xo'jaliklarida amalda joriy etilgan [1]. Bunda beriladigan oziq birligiga, hazm bo'ladigan protein, osh tuzi,

kalsiy, fosfor, karotin miqdoriga, shuningdek, ratsiondagi mikroelementlar hamda qand-protein va kislota-ishqorlar nisbatiga alohida e'tibor beriladi.

Respublikamizda hayvonlarning turi, yoshi, vazni, oriqlik semizligi, olinadigan mahsulot miqdori va sifati, shuningdek, fiziologik holatiga qarab har xil oziq me'yorlari ishlab chiqilgan. Oziq me'yorlari mollarni oziqlantirish ko'rsatkichlariga ko'ra ifodalanadi. Masalan, oziq birligi hisobida energiya bilan ta'minlanishga, hazm bo'ladigan protein, karotin, kalsiy, fosfor va osh tuzi kabilarning yetarli miqdorda bo'lishi asos qilib olinadi.

Oziq me'yorlarini tuzishda hayvonlarning bir sutka davomida oziq moddalarga bo'lgan talabi hisobga olinsa, ratsion tuzishda — me'yorda belgilangan ko'rsatkichlarga ko'ra mollarning ehtiyojini qondira oladigan yem-xashak turi va miqdori olinadi, ya'ni avval me'yor belgilanib, keyin ratsion tuziladi. Masalan, sog'in sigirlarga rejalashtirilgan ratsiondagi 1 oziq birligida 100-110 g hazm bo'ladigan protein, bo'g'oz sigirlarnikida 120 g hamda 6,5-7,0 va 10-12 g kalsiy, 4,5 va 6,0-7,0 g fosfor, 40-50 mg karotin va 7,0-7,5 g osh tuzi bo'lishi kerak [2].

Sog'in sigirlarning oziq me'yorlarini belgilashda ular o'rtacha semizlikda bo'lishi nazarda tutiladi. Lekin sigirlar oriqlik bo'lsa, qo'shimcha ravishda 1-2 oziq birligi va 110-120 gramm hazm bo'ladigan protein berish tavsiya etiladi. Sog'in sigirlar va barcha turdagi mollar uchun oziq me'yorlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Chorvachilik ilmiy-tekshirish instituti olimlari tomonidan bir qancha tavsiyalar ham berilgan.

Ratsion tuzishda sog'in sigirlarning sut mahsuldorligi asosiy diqqat markazida bo'lishi lozim. Aks holda, sigirlarga me'yor asosida ratsion tuzilmasa, ularning suti kamayib ketadi. Sersut sigirlarning oziq moddalarga bo'lgan ehtiyoji kam yoki o'rtacha sut beradigan sigirlarnikiga qaraganda yuqori bo'ladi. O'zbekiston Chorvachilik ilmiy-tekshirish instituti olimlari tomonidan olib borilgan kuzatishlarga qaraganda, sutkasiga 10 l sut sog'ib olinadigan sigirlar suti bilan 330 g oqsil, 67 380 g yog', 475 g sut shakari, 14 g kalsiy, 11 g fosfor va 5,5 g osh tuzi chiqib ketar ekan. Shuningdek, vazni 500 kg va sutkalik sut miqdori 12-16 kg bo'lgan sigirlar sutkasiga 10,5-12,5 oziq birligi, 1000-1500 g hazm bo'ladigan protein, 70-100 g kalsiy, 55-80 g fosfor, 40-80 g osh tuzi, 150-175 mg karotin olishi kerak. Har kilogramm suti uchun 25 mg qo'shimcha karotin berish lozim. Shunday qilib, sog'in sigirlar uchun ratsion tuzishda ularning me'yor darajada yashashi va mahsulot hosil qilishi uchun oziq birligi va barcha oziq moddalariga bo'lgan ehtiyoji hisobga olinishi shart.

Oziq birligi. Yem-xashak va turli xil oziq moddalarning to'yimlilikini baholash uchun bir kilogramm sulining to'yimlilik darajasi, organizmga beradigan quvvati o'lchov (oziq) birligi qilib qabul qilingan. Ratsion tuzishda boshqa turdagi yem-xashaklarning to'yimlilik shu birlikka taqqoslangan holda olinadi. Yem-xashaklar tarkibida oziq birligi har xil miqdorda bo'ladi. Masalan, 1 kg arpada — 1,2; 1 kg kunjarada — 1,5; 1 kg poxolda — 0,3; 1 kg quruq beda pichanida — 0,45-0,50; 1 kg xashaki lavlagida — 0,11-0,15 oziq birligi bo'lishi aniqlangan.

**1-jadval**

Sigirlarning oziq moddalariga bo‘lgan ehtiyoji	Oziq birligi, kg	Hazm bo‘ladigan oqsil g	Kalsiy, g	Fosfor
Me‘yor darajada yashashi uchun	4,0	230	20	10
Mahsulot hosil qilish uchun	4,8	480	40	30
Jami:	8,8	710	60	40

Ratsion tuzish. Ratsion hayvonlarga beriladigan sutkalik yem-xashak miqdori bo‘lib, oziq me‘yori asosida va hayvonlarning oziq, hazm qilish fiziologiyasini hisobga olgan holda tuziladi. Ular quyidagilar:

1. Ratsionga kiritilgan yem-xashakning to‘yimliliigi va sifati hayvonning oziq moddalariga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan bo‘lishi kerak. Bunda hayvonning mahsuldorligi, yoshi, oriq-semizligi va fiziologik holati hisobga olinadi.

2. Ratsion tarkibidagi dag‘al oziqlar miqdori yetarli darajada bo‘lishi kerak. Shuningdek, ular tarkibidagi asosiy kimyoviy elementlar — protein, uglevodlar, makro-mikroelementlar, vitaminlar yetarli bo‘lishi kerak.

3. Ratsionga har xil yem-xashaklar kiritilishi kerak. Masalan, sog‘in sigirlar ratsionida sersuv oziqlardan makkajo‘xori silosi, ildiz mevalar, ko‘k o‘t kabilar bo‘lishi, birinchidan, ovqat hazm qilish organlari faoliyatini yaxshilasa, ikkinchidan, sutini ko‘paytiradi. Shuningdek, dag‘al oziqlardan beda pichani, sifatli somon, shulxa hamda yetarli miqdorda sifatli konsentrat oziqlar bo‘lishi kerak [3]. Ana shularga amal qilingandagina hayvonlar uchun tuzilgan ratsion to‘g‘ri va samarali bo‘ladi.

Qoramollar uchun ratsion tuzish vaqtida yem-xashak turlarining tarkibi, xususiyati, hayvonlar tomonidan iste‘mol qilinishi, to‘yimliliigi, xo‘jalikdagi miqdori, qimmatini va hokazolar hisobga olinishi kerak. Har bir yem-xashak turini ratsionga kiritgan vaqtda uning mollar tomonidan to‘la iste‘mol qilinishi va hayvonning sog‘ligiga faqat ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini nazarda tutish kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin, qoramollar ratsionini har biri uchun alohida yoki bir gurux mollar uchun umumiy holda tuzish mumkin. Ratsionni «umumiy» tuzishda hayvonlarning barcha ko‘rsatgichlari (mahsuldorligi, vazni, yoshi, oriq-semizligi, fiziologik holati va hokazolar) deyarli bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lishi hisobga olinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.H.Ikromov “Chorvachilik asoslari”. Toshkent 2001.
2. Abdolnizozov B.O. “Chorvachilik asoslari”. Toshkent 2010.
3. D.Xolmirzayev, X.B.Yunusov “Chorvachilik mahsulotlarini dastlabki va qayta ishlash texnologiyasi va standartlash”. Toshkent 2023.
3. Clerence Henry Eckles. Dairy Cattle And Milk Production-Prepared For The Use Of Agricultural College Students And Dairy Famers. Codman Press. 2007.